

## 10-sinf adabiyot. 2-BSB (50 ball)

### ASAR TAHLILI

**Asar tahlili uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

**Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” dostoni**

**Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy” dostoni**

#### **BSB bo‘yicha o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar:**

- o‘z fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozma ifoda etadi;
- mavzuni qayta o‘rganib, o‘rganganlari asosida o‘z fikr-mulohazalari, taassurotlari va xulosalarini aniq, tartibli (ketma-ketlikka amal qilgan holda) hamda badiiy-tasviriyy vositalar bilan boyitib ifodalaydi.

#### **Asar tahlili uchun topshiriqlar:**

1. Asarning asosiy mavzusi va g‘oyasini yozing. Muallif qanday muammolarni ko‘targan?
2. Asardagi bosh qahramonlarning fe‘l-atvori, qarashlari, xatti-harakatlari haqida o‘z fikr-mulohazangizni yozing.
3. Asardagi muammoni aniqlang, kelib chiqish sababi va unga munosabatingizni yozing.
4. Asar mazmuni bugungi kun uchun qay darajada ahamiyatli? Fikrlaringizni yozing.
5. Asar sizga yoqdimi/yoqmadimi? Sababini izohlang.

**ESLATMA: har bir topshiriqqa yozgan javobingiz 7-8 gapdan iborat bo‘lishi lozim!**

| <b>Baholash mezonlari (50 ball)</b>                                                                                                                                                      | <b>Ball</b>    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1. Asarning asosiy mavzu va g‘oyasini ochib berishi</b>                                                                                                                               | <b>10 ball</b> |
| Asarning asosiy mavzusi va g‘oyasini tushungan, muallif ko‘targan muammoni anglay olgan va bular haqida aniq, tartibli tarzda o‘z fikrini bayon etgan bo‘lsa –                           | 10 – 8 ball    |
| Asarning asosiy mavzusi va g‘oyasini tushungan va bu haqida aniq va tartibli bayon etgan, ammo muallif ko‘targan muammoni to‘liq anglay olmaganligi sabab yetarlicha yoritilgan bo‘lsa – | 7 – 5 ball     |
| Asar mazmunini chuqur tushuna olmaganligi sabab mavzu va g‘oya haqidagi fikrlarini yetarlicha bayon eta olmagan bo‘lsa –                                                                 | 4 – 1 ball     |
| <b>2. Asardagi obrazlar tahlili</b>                                                                                                                                                      | <b>10 ball</b> |

|                                                                                                                                                                                                       |                |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| Asardagi bosh qahramonlar haqida o'z mulohazalarini yozgan, obrazlar haqidagi fikrlarini asoslay olgan bo'lsa –                                                                                       | 10 – 8 ball    |
| Asardagi bosh qahramonlar haqida o'z mulohazalarini yozgan, obrazlar haqidagi fikrlari deyarli asoslanmagan bo'lsa –                                                                                  | 7 – 5 ball     |
| Asar mazmunini to'liq tushunmagani sabab obrazlar haqidagi fikrlarini asoslay olmagan bo'lsa –                                                                                                        | 4 – 1 ball     |
| <b>3. Muammolarning kelib chiqish sabablarini yoritish</b>                                                                                                                                            | <b>10 ball</b> |
| Asardagi muammoni aniqlay olgan, muammoning kelib chiqish sababini tushungan va unga munosabatini asosli tarzda aniq va izchil bayon eta olgan bo'lsa –                                               | 10 – 8 ball    |
| Asardagi muammoni aniqlay olgan, muammoning kelib chiqish sababini tushungan, ammo unga munosabatini asosli tarzda bayon eta olmagan bo'lsa –                                                         | 7 – 5 ball     |
| Asar mazmunini yaxshi tushunmagani bois asardagi muammoni to'liq anglamagan, shu sabab muammoga munosabatini yuzaki ifodalagan bo'lsa –                                                               | 4 – 1 ball     |
| <b>4. Asarning bugungi kundagi dolzarblik darajasi</b>                                                                                                                                                | <b>10 ball</b> |
| Asar g'oyasi bugungi kun uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini, asardagi davlat boshqaruv madaniyati va adolat tushunchalarining qay darajada muhimligini asosli tarzda bayon eta olgan bo'lsa –   | 10 – 8 ball    |
| Asar g'oyasi bugungi kun uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini anglagan, ammo asardagi davlat boshqaruv madaniyati va adolat tushunchalarining qay darajada muhimligi haqida to'xtalmagan bo'lsa – | 7 – 5 ball     |
| Asar g'oyasi haqidagi fikrlar bor, biroq bugungi kundagi ahamiyati haqida deyarli to'xtalmagan bo'lsa –                                                                                               | 4 – 1 ball     |
| <b>5. Asar haqidagi xulosalarini bayon qilishi</b>                                                                                                                                                    | <b>10 ball</b> |
| Asarning qaysi jihatlari yoqqan/yoqmaganini asardan keltirilgan o'rinlar orqali asoslagan bo'lsa –                                                                                                    | 10 – 8 ball    |
| Asarning qaysi jihatlari yoqqan/yoqmaganini shaxsiy fikrlari orqali ifodalay olgan, ammo fikrlarini asardan misol keltirib asoslamagan bo'lsa –                                                       | 7 – 5 ball     |
| Asarning qaysi jihatlari yoqqan/yoqmaganini yuzaki tarzda ifodalagan, shuningdek, fikrlarini asoslamagan bo'lsa –                                                                                     | 4 – 1 ball     |
| <b>Jami:</b>                                                                                                                                                                                          | <b>50 ball</b> |